

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

TILSHUNOSLIK VA LINGVOKULTUROLOGIYANING O‘ZARO MUNOSABATI

Ravshanova Mo‘tabar

Qarshi davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi
shokhjahanakhmadov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va madaniyatning o‘zaro munosabati, lingvomadaniy birliklar, madaniyat kodlari Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida madaniy til birliklarining qo‘llanilishi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, lingvokulturologiya, madaniyat kodlari, xalq og‘zaki ijodi, maqollar, iboralar.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ЛИНГВИСТИКИ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Аннотация: В данной статье представлена информация о взаимосвязи языка и культуры, лингвокультурных единицах, кодах культуры использование единиц культурного языка в романах Абдуллы Кадыри “минувшие дни” и “Скорпион из михраба”.

Ключевые слова: язык, культура, лингвокультурология, коды культуры, устное народное творчество, пословицы, поговорки.

THE RELATIONSHIP BETWEEN LINGUISTICS AND CULTURAL LINGUISTICS

Abstract: In this article, the relationship between language and culture, linguistic and cultural units, cultural codes are expressed through proverbs and expressions used in Abdulla Qadiri’s novel “Bygone Days”, “Scorpion from The Altar”.

Key words: language, culture, linguistic culture, cultural codes, folk art, proverbs, expressions

Kirish. Til millatning ma’naviyati va madaniyatini o‘zida aks ettiruvchi ko‘zgudir. Til asrlar davomida insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy va ma’naviy boyliklarni kelajakka yetkazib beruvchi muhim hodisadir. Til va madaniyat har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi asosiy vositadir. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam bir-birini taqozo etadi. Til o‘zining har jabhasida madaniyatni aks ettiradi, madaniyat ham shu o‘rinda tilsiz mukammal namoyon bo‘la olmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda tilshunoslikning yangi sohalariga jiddiy e‘tibor berilmoqda. Lingvokulturologiya mana shu yangi sohalaridan, yo‘nalishlardan biri sanaladi. Tilning bu yo‘nalishi bevosita madaniyat, shu til vakilining dunyoqarashi, lisoniy va ong osti bilimi bilan bog‘liqdir. Ushbu soha dastlab Yevropada paydo bo‘lib, tadqiq qilina boshladi.

Til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘lanishlar, tafovut va o‘xshashliklarni o‘rganish ushbu sohani yanada rivojlantirish va o‘rganishga ehtiyoj tug‘dirmoqda. Lingvokulturologiya XX asrning oxirgi choragida dolzarblik kasb etdi. Unda lingvistik hodisalar antropologik paradigmaning hosilasi sifatida o‘rganila boshlandi. Bu sohaning asoschisi V. Gumboldt (XIX) bo‘lib, keyinchalik E. O. Oparina, V. A. Maslova, Y. S. Stepanov kabilar ilk tamal toshini qo‘ygan bo‘lsalar, o‘zbek tilshunoslaridan esa N. Mahmudov, A. Nurmonov, D. Ashurova, S. Akbarova, D. Xudoyberganovlar keng miqyosdagi ishlarni amalga oshirmoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

XX asrning so‘nggi choragida dunyo tilshunosligida qator lingvistik yo‘nalishlar paydo bo‘la boshladi. Bu yo‘nalishlar kognitiv lingvistika (kognitiv tilshunoslik), etnolingvistika, tilning antropologiyasi, lingvokulturologiya, etnogermevika, pragmalingvistika, genderologiya kabi yangi yo‘nalishlar bo‘lib, ular markazida tillarni milliy-madaniy, gender va kognitiv jihatdan tadqiq etish turadi. Keyingi o‘n yil ichida bu yo‘nalishlar (asosan, lingvokulturologiya) o‘zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi va bu boradagi dastlabki tadqiqotlar yaratildi.

Keyingi yillarda jahon tilshunosligida lingvokulturologik masalalarga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Xususan, rus tilshunoslaridan Y. S. Stepanovning “Konstantlar: Rus madaniyati lug‘ati”⁵²⁵da rus tili vakillari uchun muhim hisoblangan konseptlar va ularning mohiyatini tadqiq qilgan. N. D. Arutyunovning “Til va inson dunyosi” tadqiqoti⁵²⁶ turli davr va turli millatlar matnlarida mavjud bo‘lgan universal madaniyat terminlarini o‘rganishga qaratilgan. V. N. Teliya va uning maktabidagi tadqiqotlar predmeti frazeologizmlar, maqsadi esa milliy-madaniy konnotatsiyalari va “mentalitetning xarakterli chiziqlari”ni tavsiflashdan iborat⁵²⁷. Lingvokulturologiya va lingvokulturologik terminlar, lingvokulturologik metodlar singari mualliflar tomonidan ko‘pincha aniq asoslab berilmaydi. Natijada lingvokulturologik kategoriya erkinlikka ega bo‘lib, ba’zida biror termin ostida, hatto til siyosatini ham tushunish mumkin.

Lingvokulturologiya XX asr oxirida lingvistikada antropologik paradigmalarni mahsuli sifatida maydonga kelgan, deb qaraladi. Uning boshlanishi V. fon Gumboldt nomi bilan bog‘liq⁵²⁸. Uning tadqiqoti til xakteri va millat xakterining o‘zaro aloqadorligiga bag‘ishlangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli tillar o‘z mohiyati, ongdagi ifodasi jihatdan

⁵²⁵Stepanov Y. S. Konstanti: Slovar Russkoy Kulturi. – M.: Akademicheskii proyekt, 2004. – 991 s.

⁵²⁶Arutyunova N.D. Yazik i mir cheloveka. – M.: Yaziki russkoy kulturi, 1998. – 895 s.

⁵²⁷Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. – M.: Yaziki russkoy kulturi, 1996. – 284 s.

⁵²⁸Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulturi. — M.: Progress, 1985. - 465 s.

turli dunyoqarashlarni aks ettiradi. Til xususiyatlarida millat xarakteri namoyon bo‘ladi, shuning uchun tilni chuqur tadqiq qilishda barcha jihatlarni qamrab olishi zarur. Gumboldt qarashlarining yangiligi shunda ediki, olim turli xil til shakllarini o‘rganish mobaynida borliqni anglash va tafakkur qilish jarayonidagi turli-tumanliklar va farqlarni ajratdi hamda tilda madaniyat o‘ziga xos tarzda aks etadi, degan xulosaga keldi.

Muhokama. Ma’lumki, olamni bilishda tilning ahamiyati katta. Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til shakllanmaydi. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof qilinadi⁵²⁹.

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi.

XX asr o‘zbek adabiyoti va madaniyatining yorqin siymolaridan biri Abdulla Qodiriy ijodida boy mazmunga ega bo‘lgan lingvomadaniy birliklar marjondek tizilgan. Adibning romanlarida yurt birligi, millat taqdiri, ozodlik, muhabbat, milliy qadriyat, urf-odat mavzulari qahramonlar tilidan aytilgan maqol va iboralar, so‘z va birikmalar orqali ochib berilgan.

Yurgan daryo, o‘lturgan bo‘ryo

-Chin savdogar siz emishsiz, - dedi qutidor, - biz shu yoshqa kelib hali o‘zimizning kattaroq shaharlarimizni ham ko‘rilmadik; siz o‘risning Shamayigacha borg‘ansiz.

- Yurgan daryo, o‘lturgan bo‘ryo emish, dedi Akrom hoji.

O‘ris sharlariga borib savdo qilg‘uchilar Turkistonda juda oz hisobda bo‘lib, shet ellarni ko‘rgan Otabek majlisqa tansiqlandi...(I.2.17-bet)

Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan

To‘ybeka Kumushning tundlanishini elamadi:

-Ey... singlim, hali sen bilmaysan,- dedi, - u yigitni bir ko‘rgin-da, hu, deb ketabergin...sen tugil, shu yoshim bilsn menim ham unga tekkim keldi, - dedi va xaxolab yubordi. Kumushbibi chirt etib yuzini To‘ybekadan o‘girdi.

-Tezroq tegib qoling.

-Koshki edi tegalsam, -dedi- To‘ybeka, men uning bir tukiga ham arzimayman. Ammo sen bo‘lsang uning bilan tenglashar eding.”Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan”. Xa-xa-xa!..(I.5.32-bet)

Yov qochsa botir ko‘payar

Kumushbibi sachrab Pirmatning yuziga qaradi va uzoq tin olib qo‘ydi. Shu choqg‘acha xat o‘qub o‘lturgan ponsadboshi maktubdan yaxshi asarlangan edi. Maktubni yonidag‘ig‘a berar ekan, qushbegiga dedi:

-Bu xat toshkandlik Yusufbek to‘g‘risidagi fikrimizni tamom o‘zgartadir, taqsir! Uning Azizbek tomonliq bir kishi ekanligi Farg‘onaning har bir xos va omi og‘zida naql qilinsa ham

⁵²⁹Maslova V.A. Duxovniy kod s pozitsii lingvokulturologii: yedinitsa sakralnogo i svetskogo // Metafizika. -M., 2016. -№4. -S.79.

ammo hech bir kimsa uning ichiga kirib chiqmagandir. Har kimning ko‘nglidagini yolg‘iz bir Xudodan boshqa kim bilsin!

“Yov qochsa botir ko‘payar” qabilidan shu choqg‘acha lom demay o‘lturgan shahar a‘yonlari ham masalani onglab, so‘zga aralasha ketdilar:

-Xudo haqni nohaq qilmadi, bechora yosh yigitning haqsizga qoni to‘kilmadi.(I.19.101-bet)

Og‘riqning tuzalasi kelsa emchi o‘z oyog‘i bilan kelur

Og‘riqning tuzalasi kelsa emchi o‘z oyog‘i bilan kelur,deganlaridek, Otabekni Marg‘ilonda bo‘lish xabarini eshitib xon bilan men juda ham quvonishdiq... mana sizni chaqirishdan bo‘lg‘an maqsadimiz shudir.Yana sizning bu haqdag‘I ra‘yingiz nima bo‘lsa eshitamiz.Musulmonqulning bu so‘zlariga O‘tabboy qushbegi tamom ishong‘an, ammo Xudoyor ersa uning ilgarigi maqsadini yaxshi bilganlikdan bu so‘ng‘I gaplar bilan nihoyatda taraddudga tushgan edi.(I.23.123-bet)

Yegan og‘iz uyalar

Shu o‘lturishdan so‘ng O‘zbek oyim juda ham jonlanib ketdi va ertasiga Olim ponsadnikiga qarab yana arava qo‘shdirdi.Bu ikkinchi sovchilikda go‘yo qudachalardek qarshi olindi. Olim ponsadboshilar: Yusufbek hojig‘a quda bo‘lar ekanmiz, deb juda ham tipirlashib qolg‘an va izzat-ikromni haddan oshirg‘an edilar.Yegan og‘iz uyalar qabilidan O‘zbek oyim ham muomalani qudalarcha qildi, hatto: “ Bek otangiz bilan men so‘zni bir joyiga qo‘ydik.Faqat ish Otabekning kelishiga qoldi” deb qo‘ydi.Kechqurun uyga qaytib bu aytkan so‘zini hikoya qilg‘an edi, hoji labini tishlab qoldi va:” Sanga sira aql bitmay ketar ekan-da”, dedi.(II.1.135-bet)

Iboralar: Oyog‘i kuygan tovuqdek

Chiqg‘ach, oyog‘i kuygan tovuqdek to‘rt tomong‘a yugura boshladim.(II.8.204-bet)

So‘zini yerda qoldirmoq

Shuning bilan birga ota-onaning so‘zini yerda qoldiradi, deb ham o‘ylamas edilar.(II.10.214-bet)

Dunyodan to‘ymoq

-Yanglish so‘zlaysiz, onajon!-dedi Kumush va:-Siz dunyoda turishka loyiq edingiz, lekin sizning dunyodan to‘yishingizga va qon-qon yig‘lashingizga sababchi men bo‘ldim. (II.10.217-bet)

Tarbuzi qo‘ltig‘idan tushmoq

Bu ishkalni ko‘rgan Qalandarning tarbuzi qo‘ltug‘idan tushib “ besh oqtani qaytarish uvol-ku?!” dedi.(II.14.247-bet)

Qilni qirq yormoq

Qilni qirqqa yoradig‘an donolar ham bir narsa toqo‘y olmaydirlar...(II.17.263-bet)

So‘z shaklidagi lingvokulturemalar: daricha, ayvon, , hujra, fotiha, , tokcha, mahsi, taxmon, parangi, zulf, chopon , chiroq, kir, mulla, kafsh, salla, to‘n, yaxtak, jevak, donad, mohiyona, habba, xatna, irin, munshiy, shahnishin, hamoqat, chimildiq, naqdina, guppi,

mohazara, gardan, hijja, cho‘ri, masjid, zarxarid, mo‘ychinak, ihmol, fosih, chuvalchang, maymun, gulxan, payrav, chaqa, zaifa, dalla, musohib, jamila, kanizak, visol, hajr, ko‘ch, sandal,sadoqat.

Murakkab so‘zlar: *moltopar, oqbo‘z, g‘avg‘o solmoq, oshxona,olago‘sh, mehmonxona, mashqxon, maktabxona, devonxona, faqirxona, bachchataloq, jilovxona, ishorat qilmoq, taqrir etmoq, mirzaboshi, maktabdorlik, olachalpoq ko‘laga, oshiq bo‘lmoq,salom bermoq, sotib olmoq,shuhrat topmoq, xotinlik bo‘lmoq, kaltakesak, g‘iybat so‘ylamoq, ishorat qilmoq, tahorat qilmoq, jalb etmoq,isor etmoq, xayoli fosid, ishorat qilmoq, sayohat qilmoq, yo‘l boshlamoq, yengillik his etmoq, jarohat ochmoq, oh chekmoq, xatim bag‘ishlamoq.*

Qo‘shma so‘zlar: *viydonsiz, tokcha, taxmon, sufacha, sovchilik, palovga urnashmoq, moltopar, oqbo‘z, gavg‘o solmoq, oshxona,olago‘sh, mehmonxona, mashqxon, maktabxona, devonxona, faqirxona, bachchataloq, jilovxona, ishorat qilmoq, taqrir etmoq, mirzaboshi, maktabdorlik, olachalpoq ko‘laga, oshiq bo‘lmoq,salom bermoq, sotib olmoq,shuhrat topmoq, xotinlik bo‘lmoq, kaltakesak, g‘iybat so‘lamoq, ishorat qilmoq, tahorat qilmoq, jalb etmoq,isor etmoq, xayoli fosid, ishorat qilmoq, sayohat qilmoq, yo‘l boshlamoq, yengillik his etmoq, jarohat ochmoq, oh chekmoq, xatim bag‘ishlamoq;*

Juft so‘zlar: *Kiyim-kechak, Bola-chaqa, tosh-tarozi, murod-maqsad, osh-suv,qalinalin, gungurt-qora,salla-chopon,do‘st-dushman, cho‘zma-chalpak, oziq-ovqat, is-chiroq, er-u xotin, ahdiy-sha‘riy, fazl-u zakovat*

“Mehrobdan chayon” hamda “O‘tkan kunlar” asarlarida qo‘llanilgan so‘z holidagi lingvokultermalarni aynan misollar vositasida keltirishni lozim topdik.

Mirzaboshi tarix. O‘zbek xonliklarida (asosan Qo‘qon xonligida) mirzaxona boshlig‘i. *Safar bo‘zchi: shahardagi birorta mudarris “domlani mirzaboshi ko‘tarsalar”,yo‘q dermi?* [2,24]

Kafsh [f-t] esk. kt. ayn. Kavush.

Anvarning og‘ushidan o‘zini qutqarib, o‘rnidan turdi. Sufaning zinasiga borib kafshini kiydi. [2,116]

Salla [ar] nomozxon erkaklar boshiga o‘raydigan, uzun, oq mato.

Harchand ehtiyot qilinsa ham necha joyidan popiltirig‘i osilgan oqbo‘z salla mahalla kishilarining ermaklaridandir.[2,15]

To‘n [Oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon.Kimxob to‘n, Banoras to‘n, Zarvara to‘n.]

Bulardan boshqa hayit kunlari va to‘ylardagina kiyiladigan banoraz to‘ni, sovuq qattig‘roq bo‘lg‘anda ichidan kiyadigan adras guppisi ham bor. [2,15]

Yaktak [f-t] Uzun, oldi ochiq erkakaklar ko‘ylagi

Kezi kelganda maxdumning yozliq kiyimlarini ham bir sidra aytib ketaylik: yo‘lluq, qizil qalami bo‘zdan yaktak, oq bo‘zdan jihak yoqalik ko‘ylak va lozim hamda sarpoychan kiyishka yengilcha sag‘ri kafsh, ammo salla qishin -yozin bitta.[2,16]

“O‘tkan kunlar” romanidagi so‘z maqomidagi lingvokulturemalar:

Dalv(arabcha)- 22-yanvardan 22-fevralgacha bo‘lgan oy nomi.

1264-hijriy, dalv oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...(1. 6-bet)

Tom()- to‘la, to‘liq.*Xo‘jasi Yusufbek hojiga, ayniqsa,xo‘jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom bo‘lib,buning evasiga ulardan ham ishonch va hurmat ko‘rar edi.(1.8-bet)*

Siporishlar()- topshiriqlar,yumushlar.*Shuning uchun bo‘lsa kerak,Otabekka ixlos qo‘yib,unga o‘z bolasi kabi qarar:”O‘lganimdan keyin ruhimga bir kalima Qur‘on o‘qusa, bir vaqtlar Hasanali ota ham bore di deb yodlasa, menga shunisi kifoya” deb qaror bergan va hozirdan boshlab Otabekka bu to‘g‘rida siporishlar berib, undan samimiy va‘dalar olib yurg‘uchi oq ko‘ngil bir qul edi.(1.8-bet)*

Muvofiqttab‘(arabcha)-ta‘bga mos, munosib.

Otabek Rahmatning bu so‘zini samimiyat bilan qarshiladi.

-So‘zingiz to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q,-dedi,-ammo shuni ham qo‘shmoq kerakki,oladurg‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er han xoting‘a muvofiqttab‘ bo‘lsin.(1.10-bet)

Ashrof(arabcha)-e‘tiborli kishilar, ulug‘lar.

O‘zi davlatmand bir kishi; Toshkand ashroflarining ko‘blari bilan aloqador bo‘lg‘anliqdan balki otangiz bilan tanish chiqar.(1.12-bet)

Mushovir(arabcha) - maslahatchi.

Otabek:-Toshkand begi yonida mushovir sifati bilan turadilar.(2.14-bet)

Valine‘mat(arabcha)- aslida ne‘mat egasi, boquvchi, bu yerda “Xo‘jayin” ma‘nosida kelyapti.

Otasining valine‘mati bo‘lg‘an bir bekning zulmini iqror etish haqiqatan ham taajjubka loyiq edi.(2.15-bet)

Musohib(arabcha)- hamsuhbat.

Otam Azizbekning mushoviri va yaqin musohibi sanalsa, ham va lekin bu juz‘iy ishlardaginadir...(2.15- bet)

Mansha‘(arabcha) – boshlanishi, kelib chiqish joyi.

Darhaqiqat,o‘z ora bitmas nizo‘larning asli mansha‘ini ul yaxshi onglab tahlil qilar va durust qiymat berar edi.(2.19-bet)

Zarxarid () - tilla barobariga sotib olingan (qul laqabi).

... hatto zarxarid quli bo‘lg‘anim holda menga ham qattig‘ so‘z aytishdan saqlang‘an bir yigit o‘z nikohida bo‘lg‘an ozod bir qizga albatta zahmat bermas, deb o‘ylayman.(2.20-bet)

Natija. Lingvokulturologiya haqida so‘z yuritganda shuni alohida e‘tiborga olish lozimki, u o‘rganadigan til birliklari til va madaniyat elementlarining sintezi hisoblanadi. Bunday til birliklari ilmiy adabiyotlarda lingvokulturemalar (“lingvokulturema” atamasi V.

Vorobyev tomonidan kiritilgan) deb ham ataladi. Lingvokulturema sohalararo kompleks birlik bo‘lib, lisoniy va ekstralingvistik elementlarning dialektik birligini o‘zida namoyon etadi.

Xulosa. Shunday qilib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri, bog‘liqligini o‘rganish asosida tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi – lingvokulturologiya paydo bo‘ldi.

Madaniyatning asosiy belgisi-shaxsning ruhiy boyish vositasi bo‘la olishidir. Inson material va ruhiy madaniyatga tegishli bo‘lgan tilni o‘zlashtirish jarayonida “madaniyat dunyosi”ga sho‘ng‘iydi. Madaniyatning milliy xarakteri turli millatlararo til va madaniyat aloqalari, insoniyat taraqqiyotida shakllangan dunyo madaniyatidagi “fundamental asoslar”da boyib borishini taqozo qiladi. Ayni paytda shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, madaniyat va til o‘zaro bir-birini taqozo etadi va boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stepanov Y. S. Konstanti: Slovar Russkoy Kulturi. – M.: Akademicheskiiy projekt, 2004.
2. Arutyunova N.D. Yazik i mir cheloveka. – M.: Yaziki russkoy kulturi, 1998.
3. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. – M.: Yaziki russkoy kulturi, 1996.
4. Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulturi. — M.: Progress, 1985.
5. Maslova V.A. Duxovniy kod s pozitsii lingvokulturologii: yedinita sakralnogo I svetskogo// Metafizika.-M.,2016.-№4.
6. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2017.
7. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. - T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.